

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI**  
**№2 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI**

Toshkent sh.  
Rais – professor N.Q.Xaydarov  
Kotib – professor A.A.Yuldahev

30 oktyabr 2024 yil

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

**Kun tartibi:**

1. 2023-2024 o'quv yili bahorgi semestr natijalarining tahlili va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar haqida  
**Ma'ruzachi:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., professor S.R.Baymakov
2. 2024-2025 o'quv yiliga bakalavriatura va magistratura yo'nalishlariga qabul bo'yicha hisobot. TDSI litseyi qabuli.  
**Axborotchi:** Qabul hay'ati mas'ul kotibi
3. Xorijiy hamkorlik, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalri bilan yaqin hamkorlik aloqalari va amalga oshirilayotgan ishlar  
**Ma'ruzachi:** Xalqaro hamkorlik ishlari bo'yicha prorektor t.f.n., dotsent B.X.Yarmuhammedov
4. TDSI o'quv va ma'muriy binolarining qishki mavsumga tayyorgarlik holati  
**Axborotchi:** Ishlar boshqarmasi boshlig'i A.A.Suvonov
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limining asosiy faoliyat turlari, "Komplaens nazorat" tizimini joriy etish va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi  
**Ma'ruzachi:** Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Sh.O.Sharipov
6. Professor o'qituvchilarni tanlov asosida saylash.
7. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
8. Turli masalalar

**Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala:** 2023-2024 o'quv yili bahorgi semestr natijalarining tahlili va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar haqida

**Ma'ruzachi:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., professor S.R.Baymakov

**QAROR QILINDI:**

1. Bahorgi semestr yakunlari barcha fakultet va kafedralarda tanqidiy tahlil qilinsin, har bir fan bo'yicha ta'lim sifatini oshirish choralari ishlab chiqilsin va ijrosi ta'minlansin;

**Mas'ul – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari,  
kafedra mudirlari  
Muddat – doimiy**

2. Ta'lim jarayoni barcha fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni sifatini, yosh pedagoglarning mahoratlarini oshirish, mashg'ulotlarni qiziqarli o'tilishi orqali takomillashtirilsin;

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim  
boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari, kafedra  
mudirlari**

**Muddat – doimiy**

3. Ta'lim tizimini raqamlashtirish yakunlansin – TDSI mustaqil ta'lim platformasi to'ldirilsin, barcha kafedralar elektron baxolash tizimiga o'tishi ta'minlansin va har bir fan bo'yicha sillabuslar takomillashtirilsin

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari**

**Muddat – 1 oy muddatda**

4. Fundamental tibbiyot, Xalq tabobati, Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishlari va xorijiy talabalarni ingliz tilidagi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash uchun zamonaviy shakllarda - elektron darslik va qo'llanma ko'rinishida o'quv adabiyotlarining yaratish yo'lga qo'yilsin;

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari**

**Muddat – doimiy**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

**Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi yettinchi masala: O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash**

1. Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Ekspertlar hay'atining o'quv-uslubiy bo'lim va komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilsin

**Mas'ul – O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, Toshkent davlat stomatologiya instituti o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert hay'ati raisi**

**Muddat – 3 kun muddatda**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

**Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi sakkizinchi masala: Turli masalalar**

1. Xalq tabobati va oliy hamshiralarni tayyorlash bo'limi oktyabr oyidan Fundamental tibbiyot, xalq tabobati va oliy ma'lumotli xamshira tayyorlash fakultetiga aylantirilsin va Tibbiy va biologik kimyo kafedrasini, Jamoa salomatligi va jismoniy madaniyat kafedrasini, Asab kasalliklari va xalq tabobati kafedrasini, Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasini, Mikrobiologiya va farmakologiya kafedrasini fakultet tarkibiga birlashtirilsin.

**Mas'ul – Barcha prorektorlar, dekanlar, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari**  
**Muddat – 1 kun muddat ichida**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin

**Institut Kengashi raisi**



**N.K.Xaydarov**